

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ERGASHEV G'YOS BAXROM O'G'LI

**QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORT QILISH
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
economical sciences**

Ergashev G‘iyos Baxrom o‘g‘li

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish tizimini takomillashtirish
..... 3

Эргашев Гиёс Бахром угли

Совершенствование системы экспорта сельскохозяйственной
продукции 27

Ergashev Giyos Bakhrom ugli

Improvement of the system of export of agricultural products
..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 57

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ERGASHEV G'YOS BAXROM O'G'LI

**QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORT QILISH
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Iqt2893 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.karsu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nazarbaev Orinbay
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Farmanov Jonibek Ziyadullayevich
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:


Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.01.2020.120.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «08» avgust kuni soat 17⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch. Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78; e-mail: karsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya ishi bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (339 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch. Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78; e-mail: karsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «24» iyul kuni tarqatildi.

(2025-yil «24» iyul da 84 raqamli restr bayonnomasi)



J.K. Sauxanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, i.l.d., professor

R.B. Utemuratov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, PhD, dotsent

B.S. Qalmuratov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda qishloq xo‘jaligida zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etish, mahsulotlarni yuqori sifat bilan qayta ishlash va jahon bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish orqali mamlakat valyuta tushumini ko‘paytirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Jahon bozorida hozirgi kunga kelib meva-sabzavot mahsulotlar bozori 205 milliard AQSH dollardan ortiqni tashkil etmoqda”¹. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti milliy iqtisodiyotlar va jahon iqtisodiyotida juda muhim ahamiyatga egaligiga ko‘ra bozorga sifatli va tegishli hajmda mahsulotlar yetkazib berish dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Jahonda agrosanoat majmuasini zamonaviy talablarga ko‘ra rivojlantirishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlar ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqotlar tarkibida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmani zamonaviy asoslarda tashkil qilish, eksportbop qishloq xo‘jaligi mahsulotlari turlarini kengaytirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, eksport salohiyatni oshirishning mavjud imkoniyatlarini ishlab chiqarishga jalb qilish kabi yo‘nalishdagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish, mahsulotlar tarkibida eksport ulushini bosqichma-bosqich oshirib borish, sohaga xizmat qiluvchi infratuzilmani jahon talablari darajasida rivojlantirish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog‘lar maydonini 3 baravar va issiqxonalarini 2 baravar ko‘paytirib, eksport salohiyatini 2024-yilga kelib 3,5 milliard AQSH dollaridan oshirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Biz qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini mazmunan yangi bosqichga olib chiqishimiz zarur”². Mazkur vazifalarni amalga oshirishda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti tizimini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshiriladigan tadqiqotlar ko‘lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 12-apreldagi PQ-2520-son “Meva-sabzavot, kartoshka va poliz mahsulotlarini xarid qilish va ulardan foydalanish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 18-maydagi PF-5995-son “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqligini ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 10-maydagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son

¹ Manba: <https://gb.ru/blog/tsifrovizatsiya-ekonomiki/>

² Mirziyoyev Sh.M. Xududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va aholi bilan muloqat qilish maqsadida Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog‘ida bildirilgan fikrlari.

“2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlar, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 544-son “Minimal iste‘mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish to‘g‘risida”gi qarori hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ko‘zda tutilgan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsion tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsion tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik-huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy jihatdan yuksaltirish hamda innovatsion iqtisodiyot asoslarini shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport tizimini takomillashtirish muammolari bo‘yicha xorijlik olimlardan A.Smit, Dj.Gelbreyta, L.Hurwicz, A.Dreher, F.Schneider, C.Tiebout, J.B.Sey, F.Bastia, M.K.Bunkina, S.G.Bekker, T.Sakayya, U.Dayzard, M.Kastels, G.Assel, V.I.Shipay, B.A.Payzbeqg³ va boshqalar tadqiqotlar olib borishgan.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport tizimini takomillashtirish muammolari bo‘yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borgan MDH olimlariga T.V.Bashkova, I.M.Donnik, D.A.Kirichenko, P.I.Kapelyushnikov, M.V.Solodkov, A.I.Tapasyuk, A.P.Babayev, A.N.Moiseyev, K.Grey, L.Grishayeva, A.Kavizoda, Y.Y.Vagapova, Y.V.Danilova, A.P.Alavepdov, I.I.Pemopenko, T.S.Popova, B.A.Payzbeqg, L.SH.Lofovskiy, Y.B.Stapodubseva, M.P.Kappenko⁴ va boshqalarni keltirish mumkin.

³ Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations / introduction and commentary. Say J.-B., Bastiat F. Treatise on Political Economy / J.B. Say; Economic Sophisms. Economic Harmonies / F. Bastiat / compiled, introduction, commentary. Institutions as families of game forms / L. Hurwicz. - // The Japanese Economic Review. - 1996. - Vol. 47, No. 1. - P. 113-132. Dreher, A. and Schneider, F., 2010. Corruption and the shadow economy: an empirical analysis. Public Choice, 144(1-2), pp.215-238. Tiebout C. Exports and regional economic growth // Journal of Political Economy 64(2), 1956, 160–164. M. K. Bunkina, A. Bastiat F. Economic Harmonies. Selected Works/F. Bastiat; preface by Gr. G. Sapova; trans. from French by Yu. A. Shkolenko. – M.: Eksmo, 2007. – P. 136. Galbraith J. The New Industrial Society/trans. from English. – M.: OOO Izdatelstvo AST: OOO Transitkniga; St. Petersburg: Terra Fantastica, 2004. – 602 p. Becker S. G. Human behavior. An economic approach. Selected works on economic theory / translated from English. Comp., scientific editor, afterword by R. I. Kapelyushnikov; foreword by M. I. Levin. – M.: HSE, 2003. – 672 p. Sakaiya T. Value created by knowledge, or the history of the future// New post-industrial wave in the West. Anthology. / edited by V. L. Inozemtsev. - M.: Academia, 1999. - P. 337-371. Dyzard W. The Advance of the Information Age // The New Technocratic Wave in the West. Collection of articles / ed. by P. S. Gurevich. – Moscow: Progress, 1986. – P. 345. Castells M. The Information Age: Economy, Society and Culture / translated from English under the scientific ed. by O. I. Shkaratan. – Moscow: HSE, 2000. – 608 p. Kotler F., Keller K. L. Marketing Management / translated from English. - 12th ed. - St. Petersburg: Piter, 2012. -P. 431.7. Assel G. Marketing: principles and strategy/Translated from English by M. Z. Shterngarts. – M.: INFRA-M, 2001. – 803 p. Shiray V. I. World economy and international relations/V. I. Shiray. – M.: Publishing and trading corporation “Dashkov i Ko”, 2003. – P. 226. Raizberg B. A., Lofovsky L. Sh., Starodubtseva E. B. Modern economic dictionary.- 2nd ed. – M.: Infra-M, 1999. – 479 p.

⁴ Башкова Т.В. Государственная поддержка экспорта России в современных условиях // Молодой ученый. – 2015. – №1. – С. 181-186. Донник И.М. Обеспечение продовольственной безопасности и импортозамещения в Свердловской области: монография / И.М. Донник, Б.А. Воронин, О.Г. Лоретц // Проблемы импортозамещения в агропродовольственном секторе Российской Федерации. – Екатеринбург, 2016. – С. 40-57. Кириченко Д. А. Исследование вопросов современного состояния налогового учета расходов сельскохозяйственных организаций // Аудит и финансовый анализ. 2012.- №2. - С.92-96. Капелюшников Р. И. Технологический прогресс - пожиратель рабочих мест?/ Р. И. Капелюшников // Вопросы экономики. - 2017. - № 11. - С. 116.Солодков М.В., Тарасюк А. И. Непроизводственная сфера в общественном воспроизводстве при социализме / М.В. Солодков, А.И. Тарасюк. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1996. – С. 8. Бабаев А.П.

O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport tizimini takomillashtirishning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini Respublikamiz olimlaridan N.S.Xushmatov, T.X.Farmanov, K.Ubaydullayev, Y.E.Aliyev, A.A.Mamatov, F.Nazarova, R.X.Tashmatov, A.O‘lmasov, A.Vahobov, N.A.Ashurmetova, B.Salimov, M.S.Yusupov, X.S.Xushvaqto‘v, A.A.Zoxidov A.M.Qodirov, U.S.Muxitdinova⁵ va boshqalarning mazkur sohaga dahldor ilmiy tadqiqot ishlarini ko‘rsatish mumkin.

Материальное производство и сфера услуг в современной экономике/ А.П. Бабаев// Экономическое возрождение России. - 2017. - №1(51). – С. 115. Кондратьев Н.Д. Большие циклы конъюнктуры и теория предвидения / Сост. Ю. В. Яковец. — М.: Экономика, 2002. — 768 с. Моисеев А. Н. Оптимальные и сбалансированные траектории в моделях экономического роста с эндогенной формой НТП // Актуальные вопросы экономико-математического моделирования; под общ. ред. Грей К. Роль государства в аграрном секторе США // Экономика сельского хозяйства России. – 1997. – № 4. – С. 31–32. Гришаева Л. Концептуальные основы аграрного рынка / Л. Гришаева // Международный сельскохозяйственный журнал. – 2002. - № 1. – С. 20-23. Кавизода А. Проблемы импортозамещения и формирования экспортного потенциала в АПК России // Молодой ученый. – 2016. – №11. – С. 584-586. Кавизода А. Проблемы импортозамещения и формирования экспортного потенциала в АПК России // Молодой ученый. – 2016. – №11. – С. 584-586. М. В. Грачёвой. - М.: ТЕИС, 2004. - С. 178–190. Вагапова Я.Я. Моделирование экономического роста с учетом экологического и социального факторов. - М.: МАКС Пресс, 2007. - 128 с. Данилова Е.В. ВТО: регулирование торговли услугами/ Е.В. Данилова. – М.: ИКЦ «Академкнига», 2003. Цит. по: Бодрунов С.Д., Колганов А.И. Сфера слуг и материальное производство: проблемы соотношения в современной экономике/ С.Д. Бодрунов, А.И. Колганов// Экономическое возрождение России. - 2016. - №1(47). – С. 17. Алавердов А.Р. Лояльность преподавателей в системе конкурентных преимуществ и недостатков современного университета / А.Р. Алавердов, Н.В. Громова // Современная конкуренция. - 2016. - Том 10. - № 6 (60). - С. 77- 88. Реморенко, И.И. Перспективы применения сетевой формы реализации образовательных программ в сфере педагогического образования / И.И. Реморенко, А.И. Рожков // Вестник Герценовского университета. - 2014. - № 3-4. - С. 19-24. -https://lib.herzen. Попова Т.С. Социально-экономический механизм государственного управления национальной конкурентоспособностью: Монография/ Т.С. Попова. - Воронеж: издательств «ИСТОКИ», 2012. - 107с. Райзберг Б. А., Лозовский Л. Ш., Стародубцева Е. Б. Указ. соч. Высшее образование сегодня. 2008. № 8. Издательская группа «Логос», 2008. - С. 5. Карпенко М.П. Телеобучение. М.: СТА, 2008. - С. 53. Легостаев В. М. Наука в рамках технократической утопии Жана Фурастье/ В. М. Легостаев//Вопросы философии. - 1974. - № 12.

⁵ Xushmatov N.S., Choriyev Q. Dehqon va fermer xo‘jaliklari faoliyatini rejalashtirish.-Toshkent: Sharq, 2002.- 29 b. Farmonov T.X. O‘zbekiston Respublikasida fermer xo‘jaligini tashkil etish va rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari.: Iqt.f.dok. avtoref.- Toshkent: 2006.-50 b. Ubaydullayev X. Qishloq xo‘jaligida tashqi samara (eksternaliy)lar ta’sirni optimal tarzda tartibga solish. Monografiya. «Fan» nashriyoti. Toshkent, 2013 y. 144 bet.; Aliyev Y. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, agrosurslar va agroxiizmatlar bozorlarini rivojlantirishning ilmiy-amaliy asoslarini takomillashtirish. Iqt. fan. dok. ilm. dar. olish uchun yozilgan dis. avtoref. – T., 2018. – 38 b. Aliyev Y.E. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, agrosurslar va agroxiizmatlar bozorlari rivojlanishi mutanosibligini ta’minlash yo‘nalishlari. Monografiya. -T.: IQTISODIYOT, 2017. – B.21. Tashmatov R.X. Qishloq xo‘jaligini institutsional rivojlantirish. Monografiya. – T.: Iqtisodiyot, 2013. – 160 b. (ISBN: 978–9943–10–874–5) O‘lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. TDIU.-T.:”Iqtisod-Moliya” 2014.- B.20. Ashurmetova N.A. Organik qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning obyektiv zaruriyati va tamoyillari . “Iqtisodiyot va ta’lim” jurnali. T. 2021 yil. №5 son. B.35. Salimov B., Shukurov Sh., G‘ulomov R. Потенциал и перспектива развития плодощеводства и виноградарства в Узбекистане.-T.: O‘zbekiston. 2014.-24 s. Mamatov A.A., Jo‘rayev T.T. Klasterlarni tashkil etish va ularning faoliyatini yo‘lga qo‘yishning xorij tajribasi. “XXI asr: fan va ta’lim masalalari” elektron jurnali. №1, 2020. –B.12. Yusupov M.S. Jahon amaliyotida qishloq xo‘jaligini tartibga solish va qo‘llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlari. Monografiya. -T : IQTISODIYOT, 2017. - 282 b. Nazarova F. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida O‘zbekiston agrar sektorini rivojlantirish istiqbollari. 08.00.03-“Makroiqtisodiyot” ixtisosligi bo‘yicha iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi avtoreferati. - Toshkent-2001,- 23 b. Xushvaqto‘v X.S. Bozor sharoitida meva-sabzavot kichik majmuasida agrosanoat integratsiyasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy muammolari. Iqt. fan. nom. ilm. dar. olish uchun yozilgan dis. avtoref. – T., 2005. – 25 b. Muxitdinova U.S. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida meva-sabzavotchilik mahsulotlari bozorini rivojlantirish yo‘nalishlari. Iqt. fan. dok. ilm. dar. olish uchun yozilgan dis. avtoref. – T., 2010. – 36 b. Qodirov A.M., Axmediyeva A.T. Klasterlarni rivojlantirishni bo‘yicha uslubiy mintaqaviy xususiyatlari. “Qishloq xujaligida klaster tizimini rivojlantirish: tajribalar, natijalar va istikbolli yunalishlar”. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2019-yil 24-may: - 2019. 260b. Salihov S.A., Iskandarov Z.S., Xotamov I.S., Sharipov S.Y., Xo‘jayev F., Olimov M.K. Shavkatov N.SH. “Davlat-xususiy sheriklik loyihalari moliyaviy samaradorligi

Biroq bugungi kunga kelib respublikamiz agrar sohasiga iqtisodiyot va moliya vazirligining ma'lumotlariga ko'ra davlat tomonidan dunyoning rivojlangan mamlakatlariga nisbatan 2-3 barobar ko'p mablag' ajratilmoqda. 2025-yilga borib, davlat tomonidan qishloq xo'jaligi faqat bozor mexanizmlari asosida tartibga solinadi. Shuni e'tirof etish joizki, mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish hajmini oshirish hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha hali to'liq ishga solinmagan salohiyatli imkoniyatlar mavjud. Shu sababdan, hozirgi kunda faqat bir mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashuv xususida emas, aksincha bir qator sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish va uni chet mamlakatlarga eksport qilishga ixtisoslashgan korxonalarni shakllantirish, bozor konyukturaviy o'zgarishlariga sezgir va hozirjavob boshqaruv tizimlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport salohiyatini va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning konseptual asoslarini tadqiq etish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning xorijiy davlatlar tajribasini ochib berish va bu boradagi tajribalardan O'zbekistonda foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

milliy iqtisodiyotda qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanish darajasi va unda eksport dinamikasini tahlil etish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish tizimidagi muammolar, tahdidlar va uning imkoniyatlar eshigini ochish;

eksportga yo'naltirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini balli-reyting baholash algoritmi va uni subsidiyalash metodologiyasini ishlab chiqish;

qayta ishlash va sotish kooperatsiyasi hamda agrologistik markazlarni qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishning samarali bo'g'ini sifatida ilmiy asoslash;

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti bo'lib qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish tizimi olingan.

Tadqiqotning predmeti qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jarayonida yuz beradigan iqtisodiy munosabatlar bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, mantiqiy mushohada, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, reyting asosida baholash, induktiv va

tahlili".\| Iqtisod va Moliya / 2020, 4(136) 2-bet. Zoxidov A.A. Центрально-Азиатская транспортная система: инициативы по совместной координации, проблемы и решения // «Экономика Центральной Азии» №3, 2020, 185-196 С.

deduktiv fikrlash, solishtirish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash kabi usullardan foydalaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorini tadqiq etishning konseptual asoslari, ijtimoiy tanlov va neoinstitutsionalizm nazariyalarning asosiy qoidalarini hisobga olgan holda iqtisodiy paradigma kontekstida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorini tashkil etishning ishlab chiqaruvchidan tortib iste'molchigacha bo'lgan oraliqdagi harakatining samarali tizimini ta'minlashning nazariy jihatlari asoslangan;

ekin turlarini yetishtirish samaradorligi, eksport salohiyati va ekologik tozalik darajasiga ko'ra $0 < M_e < 0,2$; $0,2 < M_e < 1$; $M_e > 1$ shartlar asosida aniqlangan balli-reytingi bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport turlarini qo'llab-quvvatlash uchun subsidiya miqdorini $S_i = R \cdot \bar{x} + 0,5Y$ asosida hisoblash orqali qishloq xo'jaligi ekin maydonlarini diversifikatsiya qilish taklif etilgan;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishdan boshlab, ularni qayta ishlash, tashish, marketing va eksportgacha bo'lgan barcha bosqichlarini yagona tizimga birlashtiruvchi agrologistik klasterlar hamda mahsulotni qayta ishlash va sotishga ixtisoslashgan kooperativlar mazkur mahsulotlarning jahon bozoriga samarali tarzda olib chiqilishini ta'minlovchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida asoslangan;

davlat tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishni qo'llab-quvvatlash yondashuvi doirasida transportirovka, mahsulotlarni saqlash, sertifikatlash hamda xorijiy mamlakatlardagi vakolatxonalarini tashkil etish kabi to'rtta asosiy yo'nalishga tayangan yangi model ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“qishloq xo'jaligi organik mahsuloti”, “oziq-ovqat bozori” hamda “oziq-ovqat bozorini ekologiyalashtirish” kabi asosiy ilmiy tushunchalarga aniqlik kiritilib, ularning mazmuni kengaytirilgan;

qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini rag'batlantirish doirasida yuk tashish xarajatlarini subsidiyalash, imtiyozli transport ta'riflarini qo'llash hamda qayta ishlovchi korxonalar barpo etilishi uchun yanada qulay investitsion muhit yaratish bo'yicha takliflar asoslangan;

jahon tajribasi asosida milliy eksport tizimini institutsional asosda takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish bo'yicha samarali model tasniflangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi unda qo'llanilgan yondashuv va instrumentlarning maqsadga muvofiqligi, monografik tahlil va statistik ma'lumotlar bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, zamonaviy integral va reyting baholash usullari orqali asoslanganligi, empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil etilganligi hamda tegishli xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda asoslab berilgan nazariy qoidalar va xulosalar qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash konsepsiyasini

shakllantirish hamda uni yanada takomillashtirish jarayonida nazariy-metodik asos sifatida foydalanish imkonini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va amaliy tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi va boshqa davlat boshqaruvi organlari tomonidan tahliliy tavsiyalar tayyorlashda, oliy ta‘lim muassasalarida o‘qitiladigan “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanlarining o‘quv dasturlarini takomillashtirish va o‘qitish jarayonlarida foydalanilish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorini tadqiq etishning konseptual asoslari, ijtimoiy tanlov va neoinstitutsionalizm nazariyalarning asosiy qoidalarini hisobga olgan holda iqtisodiy paradigma kontekstida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorini tashkil etishning ishlab chiqaruvchidan tortib iste‘molchigacha bo‘lgan oraliqdagi harakatining samarali tizimini ta‘minlashning nazariy jihatlari bo‘yicha taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tomonidan “qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksport qilish tizimini takomillashtirish mexanizmida yuzaga keluvchi to‘siqlarni bartaraf qilish orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eksport hajmini oshishiga xizmat qilish mexanizmi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 8-oktabrdagi 05/06-02-859-son ma‘lumotnomasi). Taklif Sirdaryo viloyati Sardoba tumani hududida joylashgan “INDORAMA” klaster mas‘uliyati cheklangan jamiyat amaliyotiga joriy qilingan holda mahsulotlar eksport hajmining 9,1 foizga oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

ekin turlarini yetishtirish samaradorligi, eksport salohiyati va ekologik tozalik darajasiga ko‘ra $0 < M_e < 0,2$; $0,2 < M_e < 1$; $M_e > 1$ shartlar asosida aniqlangan balli-reytingi bo‘yicha qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksport turlarini qo‘llab-quvvatlash uchun subsidiya miqdorini $S_i = R \cdot \bar{x} + 0,5Y$ asosida hisoblash orqali qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarini diversifikatsiya qilish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tomonidan “qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilishda yuzaga keluvchi to‘siqlarni bartaraf qilish orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eksport hajmini oshishiga xizmat qilish mexanizmi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 8-oktabrdagi 05/06-02-859-son ma‘lumotnomasi). Taklif Sirdaryo viloyati Oqoltin va Mirzobod tumanlari hududida joylashgan “BEK” klaster mas‘uliyati cheklangan jamiyat amaliyotiga joriy qilingan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eksport hajmining 8,3 foizga oshirishga erishishiga muayyan darajada xizmat qilgan;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishdan boshlab, ularni qayta ishlash, tashish, marketing va eksportgacha bo‘lgan barcha bosqichlarini yagona tizimga birlashtiruvchi agrologistik klasterlar hamda mahsulotni qayta ishlash va sotishga

ixtisoslashgan kooperativlar mazkur mahsulotlarning jahon bozoriga samarali tarzda olib chiqilishini ta'minlovchi asosiy mexanizmlardan biri ekanligi taklifi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tomonidan "qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish tizimida yuzaga keluvchi to'siqlarni bartaraf qilish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport hajmini oshishiga xizmat qilish mexanizmi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 8-oktabrdagi 05/06-02-859-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklif Sirdaryo viloyati Sardoba tumani hududida joylashgan "SERHOSIL BOG" fermer xo'jaligida amaliyotga joriy qilinib, mahsulotlar eksport hajmining 23,6 foizga oshirilishiga muayyan darajada xizmat qilgan;

davlat tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishni qo'llab-quvvatlash yondashuvi doirasida transportirovka, mahsulotlarni saqlash, sertifikatlash hamda xorijiy mamlakatlardagi vakolatxonalarini tashkil etish kabi to'rtta asosiy yo'nalishga tayangan yangi model bo'yicha taklifdan O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tomonidan "qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish tizimini takomillashtirishda yuzaga keluvchi to'siqlarni bartaraf qilish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport hajmini oshishiga xizmat qilish mexanizmi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 8-oktabrdagi 05/06-02-859-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklif Sirdaryo viloyati Sardoba tumani hududida joylashgan "SARDOBA HIRMONI" fermer xo'jaligida amaliyotga joriy qilingan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport hajmining 18,3 foizga oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot ishining asosiy natijalari jami 8 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 3 tasi xalqaro miqyosdagi va 5 tasi respublika darajasidagi konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusiga oid jami 16 ta ilmiy ish nashr etilib, jumladan 8 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda e'lon qilingan (6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda).

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tuzilmasi kirish qismi, uchta asosiy bob, umumiy xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqot ishining umumiy hajmi 155 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Qishloq xo'jalik mahsulotlari eksport qilish tizimini takomillashtirishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish salohiyatini shakllantirishning ilmiy-nazariy va eksportini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning konseptual asoslari tadqiq etilgan hamda qishloq xo'jalik mahsulotlari eksportini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning xorijiy davlatlar tajribasi ochib berilgan.

Jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan xalqaro iqtisodiy munosabatlar umumiy hajmining asosiy qismi tashqi savdoning ulushiga to'g'ri keladi. Xalqaro savdoda xalqaro mehnat taqsimoti asosida paydo bo'ladigan turli davlatlarni tovar ishlab chiqaruvchilari o'rtasidagi aloqalarning bir shakli bo'lib, ular o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy bog'liqlikni namoyon qiladi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari bozori ma'lum bir o'ziga xoslik bilan tavsiflanadi. Bu talab va taklifning yetarli darajada moslashuvchan emasligida ya'ni, bu qishloq xo'jalik mahsulotlarining past narx elastikligi bilan asoslanadi. Bunga qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetkazib berishning tabiiy shart-sharoitlarga bog'liqligi bilan tavsiflanadi. Bu jarayonlar o'z qonuniyatlari asosida amalga oshadi va yetkazib berish hajmlari va uning diapazoniga bevosita ta'sir qilish juda qiyin.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori, odatda, ichki (mahalliy va xududiy bozorlar) va tashqi bozorlarga bo'linadi. Bozor – tovar ayirboshlash jarayonida sodir bo'ladigan subyektlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yig'indisi bo'lib, ushbu munosabatlar bozorning talab va taklif qonuni, raqobat sharoitida hamda davlatning bilvosita va bevosita muvofiqlashtiruvchi dastaklari ta'sirida amalga oshiriladi. Rus olimi L.Grishayevaning fikricha, «qishloq xo'jalik mahsulotlari bozori yagona bozor maydonining ajralmas qismidir».

Tadqiqotlarga ko'ra, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ishlab chiqaruvchidan tortib iste'molchigacha bo'lgan harakati tizimini samarali ta'minlash qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorining tuzilishini rivojlantirishdagi eng dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Tadqiqotlarga ko'ra qishloq xo'jaligining eksport salohiyati ma'lum bir hudud chegaralarida joylashgan barcha ijtimoiy takror ishlab chiqarishning iqtisodiy omillar va davlat tomonidan eksportni qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlanish darajasini ifoda etadi.

Eksport salohiyati uchta komponentdan iborat:


- 1) tarmoqdagi yalpi resurslar hajmi;
- 2) tarmoqning jahon bozorida talab qilinadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish qobiliyati;
- 3) erishilgan iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanish hamda tashqi savdo infratuzilmasining rivojlanish darajasini, eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini hisobga olgan holda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish imkoniyatlari.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari eksportini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning konseptual asoslarini tadqiq etishdan oldin “qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish” tushunchasining mohiyatiga aniqlik kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Iqtisodiy adabiyotda “davlatning agrar siyosati” va “qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish” tushunchalari keng qo'llaniladi. Fikrimizcha “agrar siyosat” keng tushuncha bo'lib, “qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish” agrar siyosatni amalga oshirishning shakl, usul, mexanizm va vositalarini ifodalaydi.

Tadqiqot ishida qishloq xo'jalik mahsulotlari bozorini tadqiq etishning konseptual asoslari, ijtimoiy tanlov, oqilona kutishlar, neoinstitutsionalizm

nazariyalarning asosiy qoidalarini hisobga olgan holda iqtisodiy paradigma kontekstida, qishloq xo‘jalik mahsulotlari bozorini tashkil etishning nazariy jihatlarini asoslandi.

Bizning fikrimizcha qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvatlash bu – davlatning agrar sektor va qishloq hududlarini barqaror sur‘atlar bilan rivojlantirish, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi va eksport salohiyatini mustahkamlash, qishloq aholisining bandligi, turmush sifati va farovonligini yuksaltirish hamda ijtimoiy-ekologik vaziyatni yaxshilash maqsadida amalga oshiradigan ma‘muriy-tashkiliy, meyoriy-huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy-ekologik va institsional xarakterdagi chora-tadbirlar tizimidan iborat. Quyida qishloq xo‘jaligining eksport salohiyati komponentlari keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Mamlakat qishloq xo‘jaligining eksport salohiyati komponentlari ⁶


1-rasmda Agrosanoat majmuasining eksport imkoniyatlari jami tashkiliy, iqtisodiy, kadrlar, tabiiy resurs, bioiqlim, innovatsion, ishlab chiqarish, marketing va investitsiya salohiyatini o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasining jahon qishloq xo‘jaligi bozorlarida mustahkam o‘rin egallashi ko‘p jihatdan eksportga chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligi bilan bog‘liq. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son “Qishloq xo‘jaligini

⁶ Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan

rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida "yangi maqsadli eksport bozorlarida savdo kelishuvlarini amalga oshirish", "mahalliy va maqsadli xalqaro bozorlarda mahsulotlarning marketingi va tashish xarajatlarini kamaytirish" vazifalari belgilangan.

Bugungi kunda davlat qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini qo'llab-quvvatlashning moliyaviy mexanizmlari orqali hamda jahon oziq-ovqat bozorida qulay muhit yaratishga qaratilgan bilvosita choralar orqali ham rag'batlantirmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning konseptual asoslari, shu jumladan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari yo'naltirilgan maqsad, vazifalar, yo'nalishlar va ko'rsatkichlarni oshirish ko'rsatilgan. Bizning fikrimizcha, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning maqsadi mamlakatning qishloq xo'jalik tarmog'ining eksport salohiyatini oshirish bo'lishi kerak (2-rasm).



2-rasm. Qishloq xo'jalik mahsulotlari eksportini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning konseptual asoslari ⁷

Ushbu maqsadga erishish uchun davlat quyidagi vazifalarni hal qilishi kerak:

- 1) chetga eksport qilinadigan qishloq xo'jalik ekin maydonlari tarkibiy tuzilmasini optimallashtirish;
- 2) tashqi bozorda mahsulotlarni yuqori narxda sotish hisobiga iqtisodiy samaradorligini oshirish;

⁷ Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

3) intensiv qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi natijasida atrof-muhitga yetkazilgan zararni qoplash;

4) eksport xatarlarini kamaytirish va o'zini o'zi ta'minlash darajasiga erishish uchun qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish va uni qo'llab-quvvatlash;

5) mahsulotlarini sotish bozoriga yetkazib berishda xarajatlarini kamaytirish maqsadida transport logistikasini takomillashtirish.

Tadqiqotlarga ko'ra xorijiy mamlakatlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport qilish tizimini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning barcha instrumentlarini ikki turga bo'lish mumkin: moliyaviy va nomoliyaviy. Nomoliyaviy qo'llab-quvvatlash asosan strategiyalar, respublika va mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi. Eksportchilarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash imtiyozli kreditlar, sug'urta va eksport kafolatlari hamda imtiyozli soliqqa tortish shaklida amalga oshiriladi.

AQShda eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash instrumentlaridan biri bu «checkoff dasturi» bo'lib, uning doirasida qishloq xo'jaligini rivojlantirish, fan va axborot fondlari orqali qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari o'z mahsulotlarini sotishda ulgurji sotuvchilar, qayta ishlovchilar va mahsulot eksport qiluvchilardan mablag' yig'adilar.

Xitoy siyosatini ichki va fiskal boshqaruv doirasida tovarlar eksportini, shu jumladan agrosanoat majmuasini faol qo'llab-quvvatlash sifatida tavsiflash mumkin. Agrosanoat majmuasi uchun birinchi va eng muhimi bu tegishli mahsulotlarga imtiyozli soliq solish, shuningdek uning xaridorlari uchun imtiyozlar, xususan: qishloq xo'jaligi mahsulotlari QQSga tortilmaydi va ularni qishloq xo'jaligi kooperativlaridan sotib olgan soliq to'lovchilar daromad solig'i bo'yicha chegirma 13% soliq to'lash huquqiga ega.

Tadqiqot ishida eksportni qo'llab-quvvatlashning xorijiy davlatlar tajribasini tadqiq qilish asosida O'zbekistanda qishloq xo'jalik mahsulotlari eksport qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- qisqa, o'rta va uzoq muddatli eksport shartnomalarini siyosiy va moliyaviy xatarlardan sug'urtalash;

- eksportchilarning eksport shartnomalarini bajarishi bilan bog'liq zararlarni sug'urtalash;

- tashqi bozorlarni o'rganish maqsadida eksport qiluvchi kompaniyalar xodimlariga chet el xalqaro ko'rgazmalarga ishtirok etishi bog'liq xarajatlarini davlat tomonidan qoplab berish;

- tashqi bozorlarga kirib borish yuzasidan xalqaro bitimlar tuzish uchun sarflangan xarajatlarni davlat tomonidan qoplab berish;

- eksport qiluvchi kompaniyalarga chet elda ofislar, do'konlar va tashkil etish bilan bog'liq xarajatlarni davlat tomonidan qoplab berish;

- erkin meva-sabzavotchilik iqtisodiy hududlarini tashkil etish va ularga huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy imtiyozlar berish;

- tadbirkorlar hamda investorlar uchun meva-sabzavot mahsulotlari eksporti ko'rsatkichlari, eksport qilish tamoyillari hamda bojxona deklaratsiyalarini to'ldirish borasida ma'lumotlar portalini ishga tushirish.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini eksport qilish tizimi va uning asosiy rivojlanish tendensiyalari tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini rivojlanish darajasi, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini eksport qilish tizimidagi muammolar va eksport hajmini oshirishning mavjud imkoniyatlari ochib berilgan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti hajmi, tarkibi, dinamikasi va uning prognozlari ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 63,1 foizini dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 29,8 foizi fermer xo‘jaliklariga va 7,1 foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Hududlar bo‘yicha eng yuqori o‘sish ko‘rsatkichlari Sirdaryoda – 106,4 foiz, Namanganda – 104,5 foiz, Samarqandda 104,4 foiz, Qashqadaryoda – 104,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, Surxondaryoda – 103,7 foiz va Farg‘onada 103,9 foiz darajada bo‘lib, yuqori o‘sish sur‘atlari ta‘minlanmagan.

O‘zbekiston Respublikasida chetga eksport qilinadigan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining ekin maydonlarini kengaytirish natijasida 2024-yilga kelib gilosning ekin maydoni 2700 ga, olmaniki, 4325 ga, yong‘oqnik 2450 ga, o‘rikniki, 1877 ga, bodomniki 1406 ga, shaftoli 1608 ga, olho‘ri 1367 ga, anor 1118 ga, nok 712 ga va pista maydonlari 254 ga tashkil qildi. Bu respublikamizda chetga eksport qilinadigan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining barcha toifadagi xo‘jaliklarda yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlari hajmini keskin o‘shirishga olib keldi. Tadqiq etilayotgan davrda respublikamizda gilos yetishtirish 160,2%ga, olma 156,9 %ga, olcha 145%ga, no‘xat 135,2%ga o‘sd. Amalga oshirilgan tizimli ishlar natijasida, 2024-yilda 8,4 million tonna don ekinlari, 11,6 million tonna sabzavot, 3,6 million tonna kartoshka, 2,6 million tonna poliz, 3,1 million tonna meva, 1,7 million tonna uzum yetishtirildi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksport hajmini oshirish va uni 2-3 barobar qimmatroq narxlarda eksport qilish orqali yalpi ichki mahsulotlar hajmini oshirish, valyuta tushumini ko‘paytirish maqsadida 80 ta davlatga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti uchun 620 ta fitosanitar ruxsatlar olinishi ta‘minlandi.

Qishloq xo‘jaligining eksport salohiyati bu ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshlik darajasi bilan belgilanadi.

Raqobatbardoshlik – bu mamlakat qishloq xo‘jalik tarmog‘ining o‘ziga hos kuchli tomonlari: mahsulotlarni chet ellik xaridorlar uchun jozibador qiladigan omillari bo‘lib hisoblanadi. Har bir mamlakat, birinchi navbatda, eksport strategiyasini ishlab chiqishda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini ta‘minlaydigan kuchli tomonlarini aniqlashi zarur.

SWOT tahlili qishloq xo‘jalik tarmog‘ining kuchli, zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlarini aniqlash uchun foydalanish mumkin bo‘lgan universal instrumentdir.

Dissertatsiyada amalga oshirilgan tahlillarga asoslanib, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jalik tarmog‘ining kuchli va zaif tomonlarini, shuningdek, imkoniyatlar va tahdidlari aniqlandi (1-jadval).

O‘zbekistonda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini jahon oziq-ovqat bozorlarida raqobatbardoshligining SWOT tahlili ⁸

STRENGTH - KUHLI TOMONLARI	WEAKNESS - KUHSIZ TOMONLARI
<ul style="list-style-type: none"> • sabzavot, poliz, meva va dukkakli ekin turlarini yetishtirish bo‘yicha to‘plangan katta tajriba, bilim va salohiyatni mavjudligi; • qishloq xo‘jaligi ilmiy markazlarni mavjudligi; • O‘zbekistonning kamdan-kam noyob tuproq-iqlim sharoiti, quyoshli kunlarning bir yilda o‘rtacha 320 kun bo‘lishi, barcha to‘rt faslning izchil almashinuvi; • meva-sabzavotlarning bebaho iste‘mol xususiyatlari, ya‘ni tarkibida tabiiy shakar, amino va organik kislotalar, salomatlik uchun eng muhim bo‘lgan mikroelementlar va oziq-ovqat ratsionida o‘rnini almashtirib bo‘lmaydigan turli biologik moddalarga boyligi natijasida dorivorlik xususiyatlarga egaligi; • organik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarilishi. 	<ul style="list-style-type: none"> • jahon bozorlaridagi narx, konyuktura va raqobat muhiti, eksport operatsiyalari, sifat standartlari, texnik, sanitariya, gigiyenik, fitosanitariya, veterinariya, ekologik va boshqa talablarni yuqoriligi, meyoriy-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida ishonchli axborotlarga ega emasligi; • eksportda qo‘shilgan qiymati past bo‘lgan mahsulotlarni ustunligi, ta‘riflar va transport-logistika tizimlarining talab darajasida emasligi; • bojxona yuk o‘tkazish qobiliyati va xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari pastligi; • mexanizatsiyalash darajasining pastligi; • meva-sabzavotlar hosildorligi darajadaliigi; • eksportni ko‘maklashuvchi konsalting va servis xizmatlari, infratuzilmalar yetarli darajada rivojlanmaganligi va boshqalar.
OPPORTUNITIYES - IMKONIYATLAR	THREATS - XATARLAR
<ul style="list-style-type: none"> • jahon oziq-ovqat bozorlarida o‘zbek meva-sabzavotlariga talabning yuqoriligi va ushbu bozorlar sig‘imining kattaligi; • mahsulotlarini yil davomida saqlash va eksportga chiqarish uchun mahsus sovutkichli omborlar tizimining mavjudligi; • tog‘li va tog‘ oldi hududlarida qo‘shimcha mevazor va uzumzor bog‘lar barpo etish uchun yetarli yer-suv va mehnat resurslari mavjudligi; • investitsiyalar jalb qilish, yuqori texnologiyali issiqxona komplekslari, intensiv bog‘lar barpo etish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, meva-sabzavotlar hosildorligini va sifat ko‘rsatkichlarini yanada oshirishga olib kelishi; • bojxona postlarida yukni rasmiylashtirishda “yagona darcha tamoyili”ni qo‘llanishi va boshqalar. 	<ul style="list-style-type: none"> • jahon oziq-ovqat bozorlarida siyosiy za lobbistik manfaatlari hamda ichki bozorni turli proteksionistik choralar, ta‘rifli va nota‘rif usullar yordamida himoyalashga o‘tgan,; • rivojlangan mamlakatlarda importga turli to‘siqlar qo‘yishi; • JST talablari doirasida eksportning tartibga solinishi; • Qishloq xo‘jaligi texnikalari, yonilg‘i-moylash materiallari, energiya resurslari, mineral va organik o‘g‘itlar narxlarining tez o‘zgarishi; • texnologik modernizatsiyaning zaifligi va innovatsion rivojlanishning sekinligi; • yerlarining unumdorligining pasayishi, suv tanqisligi va sohada band bo‘lgan ishchilarning ish haqining pastligi.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining kuchli tomonlari tarmoqni kelgusida rivojlantirish imkoniyatlarini belgilab beradi. Zaif tomonlar ushbu rivojlanishga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan istiqboldagi tahdidlarni aniqlaydi.

⁸ Muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi tarmog‘i uchun imkoniyat va tahdidlarni aniqlash, sohadagi mavjud vaziyatni xolisona baholash va istiqbolda uni rivojlantirish tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi. Mamlakatning yaqin istiqboldagi asosiy muammosi Xitoy bozorida qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan talabning o‘sishi bo‘lib, hozirda ushbu talabni davlatimiz tomonidan to‘liq qondirishga qodir emas.

Xitoy davlati eksport qilinadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifatiga yuqori talablar qo‘ymoqda, bu esa qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari va eksportyorlarining ularni sertifikatlash jarayoniga e‘tiborini kuchaytirishni talab qiladi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari eksportini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash bilan shug‘ullanuvchi davlat idoralari va milliy tashkilotlar keng doiradagi mutaxassislarni: marketolog, texnolog, huquqshunoslarni jalb qilishi, shuningdek korxonada xodimlarining malakasini oshirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etishi va rag‘batlantirishi kerak.

Tahlillarga ko‘ra ekologik toza qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish bu O‘zbekiston Respublikasidagi qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun asosiy "imkoniyatlar darchasi" dan biri bo‘lib, qishloq joylarida kichik dehqon-fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Chuqur qayta ishlangan qishloq xo‘jalik mahsulotlari eksporti ham "imkoniyatlar darchasi"dan biri bo‘lib hisoblanadi, chunki u yuqori qo‘shilgan qiymatga ega ya’ni, yuqoriroq narxda mahsulotlarni eksport qilish imkonini beradi.

“O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jalik mahsulotlar eksporti xajmini oshirishga katta imkoniyatlar darchasini dunyoning 164 ta davlati bilan savdo tizimini yo‘lga qo‘yish va barqaror bozorlarni yaratish imkonini beruvchi Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot ishida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish tizimini takomillashtirishning quyidagi huquqiy-meyoriy, iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlar taklif etilgan:

Xuquqiy-meyoriy mexanizm:

- eksportga yo‘naltirilgan mahsulot ishlab chiqaruvchi maxsus "Qishloq xo‘jaligi eksport hududlari" dasturini ishlab chiqish;
- meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilishning soddalashtirilgan tartibi bo‘yicha huquqiy-meyoriy hujjatlarni takomillashtirish;
- yuridik va jismoniy shaxslar eksport faoliyatini amalga oshirishda huquqlar tengligini ta’minlash;
- tez buziluvchi mahsulotlarni qo‘shni mamlakatlar hududlaridan olib o‘tish bo‘yicha davlatlararo bitim tuzish;
- takroran soliqqa tortishda MDH davlatlari bilan soliq yukini yengillashtirish bo‘yicha bitim tuzish.

Iqtisodiy mexanizm:

- dehqon va fermer xo‘jaliklarining eksport faoliyatini rag‘batlantirish maqsadida tijorat banklarida eksportni kreditlash mexanizmini ishlab chiqish;

- yangi barpo etilgan bog‘ va tokzorlarni hosilga kirguncha yagona yer solig‘idan ozod qilish;
- meva-sabzavot mahsulotlarini respublika hududi bo‘yicha tashishda avtomobil va temir yo‘l ta‘riflarini mavsumiy pasaytirilgan stavkalarini joriy etish.

Tashkiliy mexanizm:

- mavjud qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ulgurji bozorlar faoliyatini takomillashtirish, ya‘ni katta sig‘imga ega omborxonalar, muzlatgichlar, yuvish, saralash, qadoqlash, o‘rash tizimini tashkil qilish;
- milliy eksportyorlarni jahon bozorlaridagi konyunkturaviy o‘zgarishlar to‘g‘risidagi joriy va prognoz axborotlari bilan ta‘minlash, ichki va tashqi bozorlar marketing markazini tashkil etish;
- mahsulotlar sifatini oshirish maqsadida standartlash va sertifikatsiyalash, bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

